

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat
Universiteti
Filologiya fakulteti o'zbek tili bo'limi*

KURS ISHI

Fan: Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti

Topshiruvchi: Rahimboyeva Hulkaroy.

Qabullovchi: Dusenbayev O.

Nukus - 2013

**Mavzu : Muqimiy g'az g'oyaviy
badiiy xususiyatlari**

Reja :

I .Kirish

a) Muqimiy lirikasining o'rganish tarixi.

II.Asosiy qism

b) Muqimiy lirikasining badiiy hususiyati.

v) Muqimiy g'azallarida muhabbat mavzusi.

g) Muqimiy lirikasining uslub rang barangligi.

III.Xulosa

O'zbek adabiyotining mashhur vakillaridan bo'lgan Muqimiy o'z ijodi bilan Chiqish adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirdi, ayni paytda, axborotlar oqimining kuchayishi hamda ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishiga munosib hissa qo'shdi. Uning she'rlari hayotlik paytidayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. Muqimiy o'z ijodiy maktabiga ega shoir edi.

Muqimiy XIX asr o'zbek adabiyotining eng mashhur vakillaridan. U o'z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida "Devon adabiyoti" deb nomlanadigan Sharq adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. Ayni paytda, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Demokrat shoir Muqimiy hayot chog'laridayoq uning faoliyati bilan qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar yetishib chiqqan, shoir haqida turli qarashlar tug'ilgan edi. Davr o'tishi bilan bu qarashlar o'zgardi, yangi tus oladi, o'zgacha fikrlar ham paydo bo'ladi, qisqosi, Muqimiy ijodini o'rganish masalasining o'tmishi, tarixi tug'iladi. Muqimiy hayot vaqtidayoq uning ijodiy faoliyatiga bo'lgan turli munosabatlar, Muqimiy atrofidagi fikrlar kurashi uning vafotidan so'ng yanada kuchaydi, turli tarixiy sharoitlarda turlicha shakilda davom etadi.

1907-yilda Muqimiy vafotidan to'rt yil keyin Nikoloy Ostroumov Toshkenda "Devoniy Muqimiy" nomi kichik bir to'plam nashr ettirdi. To'plamning oxirida N.Ostroumov tamonidan yozilgan kichik maqola ham ilova qilingan bo'lib, bu maqolada avtor Muqimiyning tarjimaiyoli haqida ma'lumot beradi, uning shaxsiyati va ijodiy faoliyatini baholaydi.

Ostroumov Muqimiyni "umrini qalandarona o'tkarmoqni lozim" topib, tarki dunyo qilgan, darveshlik tariqatini qabul etgan kishi, deb talqin qiladi. Ostroumov o'z xarakteristikasining oxirida Muqimiy kunduzlari din ahllari hizmatida bo'lar va madrasa hujrasida o'tirar, kechalari esa qur'on o'qish va

she'r yozish bilan shug'ullanar edi , deb ko'rsatadi . Shunday qilib , Ostroumov Muqimiyni bu dunyodan boz kechgan , tarki dunyo qilgan dindor , fanotik bir shaxs qilib ko'rsatadi.

1910-yilda Toshkentda Porsev litografiyasida “Devoni Muqimiy maa hajviyot “ nomi bilan Muqimiy asarlarining to'plami nashr qildi . 1912-yilda Toshkentda Orifjonov tipolitografiyasida Muqimiy asarlarining ikkinchi to'plami nashr qilindi . Bu har ikki to'plamda ham Muqimiy ijodiy qiyofasin yoritishda N.Ostroumov konsepsiyosi davom ettrildi.

Muqimiyning adabiy merosini to'plash va nash qilish sohasida shoir G'afur G'ulom tamonidan tuzilib , 1938-yilda Toshkentda nashr etilgan “Muqimiy bayoziy“ nomli to'plamli katta ahamiyatga ega bo'ladi. “Bayoz” da shoirning 800 misradan iborat 27 she'ri berilgan bo'lib , ular janr pirinsipiga qarab joylashtirilgan (satira , yumor , lirika) va ularga zaruriy izohlar , lug'atlar berilgan . Shuningdek , bu davrda Muqimiy asarlarining to'plami , uning ijodiga doir bir qancha ilmiy -ommabop maqolalar nashr etilib , shoir ijodini bundan keyin chuqur o'rzanish uchun keng imkoniyat ochildi. Muqimiy ijodiga oid problematic masalarni qo'zg'ash va yoritish jihatidan Oybekning “ Muqimiy asarlarida satsial tirlar “ sarlavhali maqolasi diqqatga sazovar.1950-yilda Moskva davlat badiiy adabiyot nashriyotida Muqimiyning “ Lirika va satira “ nomli ikkinchi to'lami rus tilida chiqarildiki, bu to'plam xam rus kutubhonalarini Muqimiy ijodi bilan tanishtirish jihatidan katta ahamiytga ega bo'ldi. Keyingi yillarda Muqimiy ijodiga bag'ishlab chiqarilgan kitoblar: H.Yoqubovning “ O'zbek demokrat shoir Muqimiy “ (1953) ,A.Olimjonovni “Muhammad Amin Muqimiy” (1953) H. Rozzoqning “ Muqimiy va Zavqiy” (1955) nomli kitoblari xamda “Furqat vaMuqimiy “ (1958) nomli maqolalar to'plami,Muqimiy “Tanlangan asarlar “ ining (1958) rus va o'zbek tillaridagi nashri , Muqimiyning ikki to'qlik asarar to'plami (1960) bunga yoqqol misol bo'la oladi . 1970-yilda G'ofur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotida “Muqimiy. Xayoti va ijodi” nomida birinchi martaba monografiya nashr etildi.

Muqimiy merosining katta qismi g'azal, murabba va muxammaslar tashkil etadi. Shoirning juda ko'p g'azallari uning tirikligidaniyoq qo'shiq qilib kuylagan. Ma'rifatchi shoir she'rlarida go'zal insoniy tug'ular yoqimli va tushunarli ifodalangani uchun xalq orasida tez yoyilardi. Muqimiy she'rlarida Mamajon makay, Nizomxon, Farzincha, Ismoil naychi singari o'z davrining taniqli san'atkorlari ni tilga oladi. Muqimiy ijodi san'atkor zamondoshlari e'tiborida bo'lganligi bejiz emas. Shoirning she'riyati musiqiy, ohangdor bo'lgani kabi ularning mazmun-mundariyasi ham davrga homohong edi.

Muqimiy ijodini o'rganishda professor G'ulomov Karimov (1909-1991) ning xizmatlari katta bo'ldi. G'.Karimov- Muqimiyshunoslik maktabiga asos slogan olim. Uning bu boradagi ilk maqolasi "Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganish tarixidan" (1957) oily o'quv yurtlari talabalari uchun yozilgan "o'zbek adabiyoti tarixi" (3-kitob) idagi (1966, 1975, 1987) Muqimiyga bag'ishlangan tadqiqotlari, xususan, 1962 yili yoqlagan "o'zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti" doktorlik dissertasiyasi, 1970 yili nashr etgan "Muqimiy .Hayoti va ijodi" monografiyasi muqimiyshunoslik ilimining sara namunalaridir. Nihoyat, Muqimiy asarlarining shu kungacha amalgam oshirilgan o'zbek, rus, va boshqa tillardagi nashirining aksariyati professor G.Karimov nomi bilan bog'liq.

Muqimiyshunoslik istiqlool munosabati bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Shoir bosib o'tgan murakkab ijodiy yo'l va uning sarmazmun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan ko'zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor. Bu borada professor G. Karimov izdoshlari samarali ish olib bormoqdalar.

Muqimiy she'r yozganda uning jarangdorligi, musiqiyligini ta'min eradigan vazn, qiyofa, radif masalariga katta etibor beradi. U aruz vaznining deyarli barcha bahralaridan to'la xabardor bo'lgan. Muqimiy she'rlari, asosan aruzda, uning eng yengil, o'ynoqi vaznlarida yozilgan bo'lib, bu hol she'rning emosional kuchini oshirgan.

Muqimiy ko'proq aruzning hajaz , ramal , rajaz , bahrlaridagi vazn turlaridan foydalanadi . U klassik adabiyotimizda qabul qilingan eng mashg'ur vaznlardan foidalanish bilan birga , shoirlar tajribasida kam ishlatilgan vaznlari ham qo'llaydi . Bularning biri komil bahri tarmoqlaridan komoili mujassam solim vaznidir . Bu vazning ritmik sxemasi quydagicha :

Mutafoilun Mutafoilun Mutafoilun Mutafoilun

V V – V - V V – V - V V – V - V V - V –

Muqimiy aruzning qanday vaznlarda she'r yozoyotgan bo'lsa , shularning barchasida uning nodir namunalarni yaratadi .

Muqimiy poeziyasida qofiya va radifning roli ayniqsa katta . Shubhasiz , qofiyada ham , radif ham yo'q , lekin qofiyaning ham , radifning ham birinchi vazifzsi asarning musiqiyligini ta'min etish , uning emosional kuchini oshirish uchun xizmat qilishdir . Shuning uchun ham Muqimiy po buzuq yoki soxta qofiyali she'r topilmaydi .

Ma'lumki , har bir she'riy shakilning o'z qofiya tuzilishi bo'ladi . G'azal o'ziga xos qofiya sistemasi bilan (a-a , b-a , v-a kabi) boshqa she'riy shakillardan farq qiladi. Muuxammas she'riy shakl sifatida g'azalning takomoliga erishgan turi bo'lib, ularning qofiya tuzilishida ma'lum o'xshashlik bor (a-a-a-a-a , b-b-b-b-a , v-v-v-v-a kabi). Murabbalarining ham o'z qofiya tuzilishi bor . Muqimiy murabbalarida ikki qofiya sistemasi uchraydi . Ulardan birining sxemasi a-a-a-a, b-b-b-a , v-v-v-a , tarizida , ikkinchisi b-b-b-a , v-v-v-a , g-g-g-a tarzida ko'rsatilishi mumkin. Lekin she'riy shakildagi bu qofiya tuzilishidan tashqari, ularning musiqiyligini oshirish uchun xizmat qiladigan yana qo'shimcha belgilari bor. Masalan, she'r san'atidagi qo'sh qofiya yoki misiralarning ichki qofiyalanishi ko'piroq g'azalga xos. Muqimiy poeziyasida bunday asarlarga misollar juda ko'p. Chunonchi, uning "Kulbam aro" g'azalini olaylik:

Kulbam aro qo'ydi bu *dam*, yuz shukur,ul barno *qadam*,

Maslaklarim aylab *karam*, qildi gulistoni Eram.

Jallod ko'zlari *qop-qoro*, mujgonlaridur *surmaso*,
Qayrilma qoshlar *goiy yo*, xunrez shamshiri *dudam*.

Jono, dedimki, *soddaro'*, ko'pdur g'azallar *tundho'*,
Suhbatda shirin *guftug'o'*, olifta sandek *sho'xi kam*.

Aydi kulub: “ *Ey notovon*, hajrimda ranging *zafaron*,
Jabru jafo qildim *yomon*, ma'zur tut, chekting *sitam*”.

Aydimki, “qullikka *bitib*, kelgan zamon tashrif *etib*,
Qol ko'ngillardan *ketib*, har qanchakim ranju *alam*”.

Gul –gul yonib, ruhsor *ochib*, guftoridin durlar *sochib*,
Kelmas Muqim emdi *qochib*, ketdi qilib chun vahshi *ram*.

Shunisi harakterliki, bu sherning har baytiga ichki qofiyalarni ham hisobga olsak, g'azalarning qofiya tuzulishi a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a, g-g-g-ashaklida namayon bo'ladiki, bu murabbaning qofiya turlaridan birini eslatadi. Lekin shunga qaramay, bu she'r murabba' emas; uning qofiya tuzilishi ham g'azallarning qofiya tuzilishi kabi a-a, b-a, g-a, shaklida ko'rsatilishi mumkin.

She'rning mazmunni kuchaytirishda va emotsional ta'sirini oshirishda radufning ham roli katta.

Radif misralar ohirida takrorlanib turuvchi so'z bo'lib, u bir yoki bir necha so'zdan tashkil topishi mumkin. Muqimiy radifni keng qo'lllagan, u she'r turlarining hammasidan ham foydalangan, jumladan, uning murabbalarida ham radifning chiroyli namunalari uchraydi. Shunday qilib, Muqumiy o'z she'rlarining badiiy shakli ustida zo'r muhabbat va matonat bilan ishlagan, badiiy mahoratning vazn, qofiya, raduf kabi elementlarini mukammal egallab, uning mumtoz namunalarini yaratgan.

Muqimiy lirikasining tili uslubi, badiiy vositalari haqida fikr yuritilganda shuni ta'kidlab o'tish zarurki, Muqimiy o'z ijodida ilg'or g'oyalarni targ'ib qilib, realistic xalqchil poeziya yaratgan ekan, shu yangi ruh va g'oyaga muvofiq keladigan yangi uslub, yangi shakl yaratishga ham kirishdi. Natijada Muqimiy lirikasining tili xalqqa yaqilashdi. Uslubi aniq va sodda tasvir vositalari esa hayotiy va konkret bo'la boradi. Shubhasiz, Muqimiy o'z lirikasida eski adabiy uslubdan, uning dabdabali tasvir vositalaridan batamom qutuldi, deb bo'lmadi. Muqimiy poeziyasida traditsion obrazlarning ko'pgina elementlari uchraydi. Lekin demokrat shoir Muqimiy lirikasi uchun harakterli va tipik hususiyat undagi hayotiylik va realizimdir.

Muqimiy shaxsiyatida g'urur va mas'ullik tuyg'ulari kuchli ekanligi uchun xam azaldan badiiy so'zga o'ta jiddiy munosabatda bo'lgan. Uning :

Bo'lmagay hosil, Muqimiy, ma'niye har lafz din,

Dona sochqon birla har qishloqi dehqon bo'ldimu? –

Degan satrlari ijodining asil mohiyatini ifodalaydi. Ya'ni shoir buntin ijodi moboynida ma'ni chiqadigan, badiiyat namunasi bo'ladigan so'z aytishga urindi. U she'rning martabasini baland tutdi. Badiiy so'zga yengil – yelpi munosabatda bo'lmadi. Shoir lirikasi, asosan, an'anaviy yo'nalishda bo'lib, ishq – muxabbat mojaralari tasvirlanadi. Unda yorning qoshi, ko'zi, yuzi, sochi, qaddi – qomati ta'rifi keltiriladi. Oshiq visol lazzatidan quvonadi, hijron azobidan iztibob chekadi. Lekin har ikki holda ham yorning husni saltanatiga, umri davlatiga rivoj tilaydi. Muqimiy lirikasidagi ma'shuqa – juda go'zal. Ammo u – qancha go'zal bo'lsa, shuncha bevafo, jafokor. SHu sababli shoir she'rlarida quvonchdan ko'ra hasrat ko'p. Muqimiyning lirik asarlarida uning yuksak badiiy mahorati ko'zga tashlanib turadi. SHoir holatini berish, mazmunini ifodalashda so'zning ma'no tovlanishlaridan, ohang turfaligidan ustalik bilan foydalanadi.

Tiyg'ing mening qonimdadur, zulfing giribonimdadir,

Yuz ming alam jonimdadur , man mubtalo qayga boray ?!

Boshdan oxir adoqsiz shikoyat ifodasiga o'xshab ketadigan bayt zaminida oshiqning o'ziga ishonchi , ma'shuqaga yaqinlikdan iftixori sezilib turadi . Agar yaqin bo'lmaganda , ma'shuqaning tiyg'i oshiq qoniga botmas , zulfi girbonidan bo'g'mas edi . She'r qahramoni uchgun oshiqlik – achchiq , ammo yoqimli qismat .

Boshqa bir g'azallarida tuyg'ulari o'ta mubolag'ali yo'sinda ifoda etiladi . Bu o'rinda Muqimiyning mumtoz she'riyat an'alariga nechog'lik yaqinligi yaqqol ko'zga tashlanadi :

Suv sepib ko'z yoshidin , qo'ydim yo'lingiz tozalab ,

To kelur vaqtida damonni g'ubor etmay keling .

Baytda oshiqning ma'shuqagab mehri , fidoyiligi aql bovar qilmas darajada ekani aks ettiriladi. Yorning etagi kir bo'lmasligi uchun yo'lga ko'z yoshidan suv sepib , kiprik bilan supirib qo'yish holatining tasviri oshiq muhabbatining darajasini ifodalaydi . Atoiy , Lutfiy ,Navoiy , Jomiy singari ulug'larga ergashib , ular ishlatgan timmsollardan foydalanib yozgan she'rlarida Muqimiyning mumtoz adabiy an'analarga ijodiy munosabati sezilib turadi :

Umr sansiz o'tsa mundog' , manga jon darkor emas ,

Tufroq o'lmak yahshiroq , ruhi ravon darkor emas .

Muqimiy lirikasiga xos eng maqbul jihatlar shoirning *“Navbohor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar”* misrasi bilan boshlanadigan g'azalida namoyon bo'ladi . Navbahor – erta ko'klam, borliqning endigina uyg'ona boshlagan payt. Tabiatning shu paladagi ko'rinishi shoirni hayojonga soladi , u poetik so'z yordamida ko'klamning tarovatli manzarasini chizadi. Lekin shoir uchun atirof go'zalligining o'zi kifoya emas. U shunday damlarda yaqin kishilari bilan bo'lgisi keladi :

Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-u ahbob il ,

O'ynashib gahi tabiatni qilaylik chog'lar.

G'azalning ikkinchi baytida Muqimiyning poetik mahorati namoyon bo'ladi. SHoir "O'ynashib gahi tabiatni qilaylik chog'lar" misirasi orqali ikki ma'noni ifodalagan. She'ning shu satrni tabiat qo'ynida o'ynashib, bir-birimizning tabiatimizni chog' qilaylik deb ham o'zimizning sho'x-u shodon o'yinlarimiz bilan tabiatni yanada ko'rkam qilaylik deb ham tushunish mumkin.

G'azalning keyingi qismi dastlabki satrlardagi tabiat go'zalligi haqidagi fikrlar shunchaki badiiy usul ekanligini ko'rsatadi. SHoir kutulmaganda g'azalxonni davrning jiddiy muammolariga ro'para qiladi:

Hayfikim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,

Oldilar har yerda bulbul ashyonin zog'lar.

Aslida san'atkorni bezovta qilgan, qo'lga qalam tutqazgan holat shu baytda ifodalanadi. Muqimiy olam hodisalarni, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni sinchikovlik bilan kuzatgan faylasuf sifatida dunyo tartiblarida adolat yo'qlig'i, ahli tamiz (aqilli kishilar) xor ekanini tasvirlaydi. G'azalning keyingi baytida anduh yanada kuchayadi. Negaki, adolatning yo'qlig'i kamlik qilganday, dardingni tinglaydigan dardkash ham topolmaysan. Yupatadi deb o'ylaganung ko'ngling yarasini tirnab, qonatishga harakat qiladi:

Marxam istab kimsadin zaxmi dil ishor aylasang,

Choraye qilmoqdin o'zga ustiga tirnog'lar.

Lekin shoir umidsizlikga tushmaydi, chekinmaydi. Taqdirining yengil bo'lishini ham arzu qilmaydi. Aksincha, u o'zini tog'day kulfatlarni qarshi olishga chog'laydi. Muqimiy "jo'ralar", "o'rtog'lar" singari kitobiy bo'lmagan so'zlashuv tilidagi atamalarni ishlatib, g'azalning obrazlari tizimini soddalashtirishga erishgan.

Muqimiy o'ynoqi va dilbar g'azallaridan biri:

Oshiq bo'libman, ey yoroi jonim,

Vaslingni izlab yo'qtur majolim.

Bayti bilan boshlanadi. Shoirning tasvir mahorati shundaki, g'azalda jafokash yordan shikoyat, u bergan azoblardan zorlanish g'oyat o'ynoqi yo'sinda ifodalanadi. Aks ettirilayotgan hayoti halot, ruhiy vaziyatning zalvori bilan

ifoda tarzining yengilligi o'rtasidagi ziddiyat she'ning ta'sir kuchini oshiradi. Ushbu g'azalda shoir mumtoz she'riyatdagi timsollardan ulishli foydalaniladi. Ayni vaqtda, muayyan oshiqning holatini berishga harakat qiladi.

Bir yo'qlamaysan kuygan qulingni,

Ko'zlari jallod, nozik niholim.

Baytida shikoyatdan ko'ra erkalash ruhi ustinroq ekani sezilib turadi. Ma'shuqa shu qadar dilbarki, u ortiqcha urinmay oshiqni "Olding ko'ngilni bir – ikki so'zlab, Devona bo'ldim, to'ti maqolim" deydigan holatga soladi.

Muqimiy ijodiga xos bosh xususiyatlarini aniqlashda, uning she'riyatidagi asosiy ma'no yo'nalishlarni belgilashda shoirning "Kim desun?" radifli g'azali muhim o'rin tutadi. Sirtidan qaraganda, yetti baytlik bu g'azal ham ishqiy mavzuda bitilgan:

Ul tag'oful peshaga holi xarobim kim desun?

Hajrida mundoog' meni ko'rgan azobim kimdesun?

Kunduzi bir yerda bir dam olmay orom-u qaro,

Lahzaye yo'q kechalari ko'zlarda xobim kim desun?

Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,

So'zki haq bo'lsa, savolimga javobim kim desun?

She'ning shu o'rnigacha ishqiy istiroblari ifodalangan edi. Hech kutilmaganda, shoirning badiiy shijoati, ijodiy e'tiqodi, insoniylik qarashlari tasvir markaziga chiqib qoladi. Bu – Muqimiy lirikasining o'ziga hos belgilaridan biri. U yakpora g'azal davomida gap nima haqida borayotgini unutib qo'yganday, bir nafas mavzudan chekinib, o'zini o'ylantirib yurgan haqiqatni qalamga oladi. "Kim desun?" radifli g'azalida shoir xalqning so'z boyligidan mahorat bilan foydalanadi. Bu quydagi baytda yaqqol ko'zga tashlanadi:

O'z ko'mochiga, masalkim, tortadur kul har kishi,

Bas, kuyub ishqida chekkan iztirobim kim desun?

Muqimiyning lirik asarlari orasida “*Zuli ila qahr-u g’azab izhor qilmoq shunchalar*” deb boshlanadigan g’azali ham o’ziga xos o’rin tutadi. Oshiq mashuqaning unga beadat zulm qilayotganidan hayron.

Hayotining ma’nosi, undagi adolat mezoni haqida ko’p o’ylaydigan har qanday odam singari shoir Muqimiy ham baxt, baxtsizlik, omad, omadsilik haqida qayta-qayta yozadi. Esingizda bo’lsa, olamni titragan Bobur ham “tole yo’qi” dan yozg’irgan, hazrati Navoi esa “Tilarmen bir yo’li buzmoq buzul’gon ro’zg’orimni” deb fariyod chekadi. Ijtimoiy hayotda ham, shaxsiy turmushda ham yorug’lik ko’rmagan Muqimiyning tole, omad, baxt haqida bot-bot toxtalishi tabiiy edi. Shoir “*Ohkim, afsus emas hach ishda rahbar toleyim*” qatori bilan boshlanadigan besh baytlik g’azalida inson va uning qismati borasidagi o’ylarni ifodalaydi. G’azalda shoir ijodiga xos tanqidiy ruh, o’z taqdiridan qoniqmaslik hissi barq urib turibdi. Shoir o’z holini juda mubolag’ali, ayrim o’rinlarda kulgili yo’sinda tasvirlaydi. Muqimiy tolesizlikdan quruq shikoyat qilmaydi, balki:

“Ohkim, afsus, emas hach ishda rahbar toleyim,

Vajgundur, imtihao qildimki, askar toleyim”,

Deya toleyini imtihon qilganlarini takidlaydi. omad shoirdan yuz deya o’g’irgan, hoytining har bir zarbasidan ozurda. Bu hol lirik qahromonning tab’i oynasini xiralashiradi, ya’ni ijoddan bezdiradi:

Yuz tarafdin yetkurub, gardi kudrat, zangi g’am,

Aylagay oinayi ta’bim mukaddar toleyim.

Shoirning iltijolari, o’tinchlari tolening tesariligiga ta’sir ko’rsatolmaydi: “har qancha qilsam tavallo, zarra qilmas iltifot. Ro’gardon, teskari tabora batdar toleyim”. Ayniqsa, she’rning quydagi satrlarda taqdirdan qoniqmaslik avj nuqtada ifoda etilgan:

Ro’zgorim tiyra, iqbolim zubun, baxtim qaro,

Bo’lsa ravshan, bormukin tadbiri digar toleyim.

Muqimiy g'azal adog'ida badiiy ifodaga hajviy yo'nalish beradi . Tolesizligi tufayli qilgan yaxshiligi ham yomon natijalar keltiriyotganligini kulgili tarzda aks ettiradi :

Nogahon bersam , Muqimiy , bir musulmonga salom ,

Daf'atan ikki qulog'ini qilur kar qoleyim ?

Shoir she'rni kutilmagan yo'sinda tugallaydi . Chunki she'rxon g'azal ruhaga qarab maq'taning avvalgi baytlaridan ham ezginroq , anduhliroq bo'lishini kutadi. Ammo shoir boshqacha yo'l tutadi . Asl ijodkorning o'ziga xosligi ham shu xildagi kashfiyotlarda namoyon bo'ladi . Muqimiy lirikasi o'zining mana shu g'oyaviy xususiyatlari bilan mehnatkash xalq ommosining ruhiga juda yaqin . Muqimiy she'rlarining xalq o'rtasida keng shuhrat qozonishining va sevilib kuylashining siri ham ana shundadir .

Muqimiy lirikasining asosini muhabbat tematikasi tashkil etadi . Bu mavzu faqat klassik adabiyotimizda yoxud Sharq poeziyasidagina emas , balki jahon adabiyotida ham juda ko'p ishlangan va unda qanchadan-qancha shoh asarlar yaratilgan . Bu mavzu ulug' Alisher Navoiga XV asrda qanday bitmas –tuganmas ma'no baxsh etgan bo'lsa , oradan qariyb besh asr o'tganidan so'ng ham Muqimiyga shunday ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi . Bu tasodifiy emas , albatta . Chunki adabiyotining asosiy obekti insondir . Insonni muhabbatsiz tasavvur qilish mumkin emas , muhabbat inson ma'naviy hayotining ajralmas qismidir . Inson social kategoriyadir . Shuning uchun uning muhabbati social , konkret tarixiy mazmunga ega bo'ladi .

Muqimiy o'z lirikasida keng ma'nodagi muhabbatni , muhabbat alangasida kuygan insonni kuylaydi . Bu inson istaklari , armonlari , kurashlari , kechinmarali , sevinch va alamlari shoir she'rlarining tub mohiyatini tashkil etadi . Ma'lum manoda Muqimiy lirikasini “inson psixologiyasini qomusi “ deb atash mumkin . Ulug' Alisher Navoiy o'z lirikasini qanday asoslar bilan “ Xazoyinul-maoniy ” (“ Ma'nolar xazinasini “) deb atagan bo'lsa , xuddi shu asoslar bilan Muqimiy lirikasini ham “ inson kechinmalarining xazinasini “ deyish mumkin .

Muqimiy o'z lirikasining “muhabbat qo'shig'i” ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi :

O'zimda , garchikim , had yo'q edi , alhamdulillohkim ,
Muborak qo'ynig'a jo topti ash'orim mani oni .

Muqimiy so'zidan bo'yi muhabbat kelgay , ey ahhob ,
Tarannum qilsa mahfiyllarda hofizlarni xushxoni .

Bu ijodiy – estetik programma ikkinchi o'rinda shunday ifoda qilinadi:

Qilma she'ringa tamasxur, tarki odatdur mahol ,
Xubro'larg'a, Muqimiy , man g'azalxon, oxunim .

Chindan ham , hayot , inson , muhabbat haqida kuylash Muqimiy ijodining tark etib bo'lmaydigan “ odati ” ga aylangan bo'lib , uning mohiyatini tashkil qilar edi .

Muqimiy muhabbat temasida ko'p dilrabo she'rlar yozdi. Unda insoniy kechinmning turli holatlari tasvirlanadi . Muqimiy bazan shunday zo'r ijodiy mahorat ko'rsatadiki , so'z san'atining namunasi bo'lgan bu she'rlarni o'qiganda , kishining ko'zi o'ngida jonli manzara , sehrli rassom qalami bilan chizilgan ajoyib lavha namoyan bo'ldi . Shoir hayolida yaratilgan lavha jonli va qonli hayot manzarasiga aylanib ketadi . Chunonchi , “Yolg'uz ” radifli g'azali shunday san'at mo'jizalaridan biri bo'lib , u rassom uchun ham , haykaltarosh uchun ham tayyor materiyaldir .

Banogah uchiradi ot o'ynatib bir dilrabo yolg'uz,
Rikobig'a surib ko'z , qo'l ochib qildim duo yolg'uz.

Dedimkim: “Nozaninlar xaylida insof qilganda,
O'zingdur xush takallum , to'tii shirin ado yolg'uz ”.

Tabassum birla pinhoni dedi : “Oshiqlarim ichra,

Vale sen ham asiru mubtalolig'ida judo yolg'uz".

Dedim : " Jono chekardim dardi hijroningni muddatlar,
Harimi vaslingga mahramlig' erdi mudda yolg'uz".

Dedi: "Xilvatda tanho ko'rmog'ingdin ne g'araz bordur ?"
Dedimkim : " Orzu shuldurki , jon qilsam fido yolg'uz" .

Muqimiyniyni panohi ismatingda asrag'il , yorab ,
Xatarlik dasht aro gumashtai berahnomo yolg'uz.

Bu she'rda tasvirlangan manzara o'zining realligi va jonligigi bilan kishini maftun etadi : o't o'ynatib qilayotgan go'zal - mahbuba , ot uzangisiga ko'zini surib , go'zal haqiga duo qiluvchi oshiq. Bu manzarada Sharq adabiyotiga xos qanchadan-qancha romantik va insoniy his – tuyg'u bor .

Muqimiy g'azallari muhabbat iztibida entikkan bir oshiq , kechinmalarining jonli va haqqomi ifodasidir . Unda , huddi hayotning o'zida bo'lganidek , nozik va chuqur tuyg'ular , qarama-qarshi kayfiyatlar aks etadi . Bu g'azalda muhabbat alangasida o'rnatgan yurakka xos qayg'u-alam bilan birga muhabbat og'ushining lazzati ham bor , ayriliq-hijron jafolaridan faryod qilish bilan birga , yor-visol umidining sevinchlari ham yangrab turadi . She'r real va hayotiy qilgan , uni jazbador san'at kuchiga aylantirgan narsa ham ana shu insoniy kechinmalarini , qarama-qarshi ruhiy holatlarni , inson tabiati va psixologiyasidagi dialektikasini bera bilish mahoratidir . Bunday she'r hech qachon eskirmaydi , har safar o'qiganda yangi zavq-shavq baxsh etaveradi .

Adabiyotimizda tarixda Muqimiy murabba janirining ustasi ekanligi bilan ham mashg'urdir . Muqimiy poeziyasining bu turida juda ko'p chiroyli namunalar yaratdi .

Muqimiy murabballari , uning ko'pchilik g'azal va muxammaslari kabi , o'zbek xalq kuylariga moslab yozilgan . Ular o'zining sodda ifodalarida

chuqur mazmuni anglatishi , ravonligi , asosan , xalq qalbidagi nozik tuyg'ularini tarannum etganligi uchun xalq hayotiga singib ketgan.

Bizga Muqimiyning 21 murabba'si ma'lum bo'lib ,ular o'zining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan alohida diqqatga sazofardir . Murabba'larining deyarli hammasi ishqiy temada yozilgan . Lekin bu tanish tema murabba'larida shu qadar ustalik , shu qadar yuksak mahorat bilan ishlanganki, natijada mo'jizakor san'at asari yuzaga kelgan . Mazmunan tugal , shaklan kam-ko'stsiz murabba'laining bir namunasi sifatida “Ko'nglim sandadur ” murabba'sini olaylik :

Emdi sendek , jono , jonon qaydadur ,
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur ,
O'zim har joydaman , ko'nglum sandadur .

Mehring o'ti nogah tushdi jonlarga ,
Parvoyim yo'q zarra xonu monlarga ,
Lola yaglig' to'lib bag'rim qonlarga ,
O'zim har joydaman , ko'nglum sandadur.

Ertayu kech fikru zikrim xayoling ,
Bir so'ramading: “Nalar kechdi ahvoling ? ”
Eslearimga tushib shirin maqoling ,
O'zim har joydaman , ko'nglim sandadur .

Voqif ermas kishi sening aslingdin ,
Tokim desam pri sening naslingdin ,
Vo darig'o , judo bo'ldim vaslingdin ,
O'zim har joydaman , ko'nglim sandadur .

Yo'q san kabi malohatlik yagona ,
Korganmukan misolingni zamona ,
Bo'lib xalq ichida mundog' afsona ,
O'zim har joydaman , ko'nglim sandadur .

Yuzlaringdin xijil mohi tobonlar ,

Rafdoringga shaydo jumla yaronlar ,
Qolib har dam o'z ishimga hayronlar ,
O'zim har joydaman , ko'nglim sandadur .
Sultonisan , barcha xo'plar nadiming ,
Doim erding duogo'yi , qadiming ,
Bovujudi so'rmay o'tting Muqimiy ,
O'zim har joydaman , ko'nglim sandadur .

Dastlab bu murabba'ning mazmuniga diqqat qilaylik . Ko'rinib turibdiki , undan muhabbat kechinmalari tasvirlanadi . Lekin shoirning ustaligi , mahoroti shundaki , kichik hajmdagi she'rda muhabbatning butun bir sarguzashdi va tarixi: muhabbatining tug'ilishi , kechinmalari , alam - xasratlari , shodliklari va nihoyat uning taqdiri ko'rsatilgan .

Keltirilgan bu bandlar mazmunidan ko'rinib turibdiki , she'rning aniq muqaddimasi va xotimasi (1- va 7- bandlar) bor , shuningdek , undagi ruhiy xolatlar rivojida ichki bog'lanish , tadrijiy va mantiqiy harakat ham mavjud . Murabba' bandlari o'zining g'oyaviy va emosional funksiyasiga batamom muvofiqdir ; bironta ham ortiqcha band yo'q . Mahbubani ko'rib oshiq bo'lgan va uning visoliga erisholmay , ertayu kech hijron o'tida yongan oshiq duogo'yi bo'lib qolish bilan qanoatlanishiga majbur . Haqiqiy va samimiy oshiq o'brizining mana shu psixologiyasi murabba'da musiqiy ravonlik bilan chizilgan .

Muqimiy ijodida muhammaslarini uchratishimiz mumkin . Uning xalq temasiga bag'ishlangan asarlarining mumtoz namunasi "Hapalak qishlog'i to'g'risida " gi muhammasidir . Muqimiy bu muhammasni XIX asrning I yarimida yashab ijod etgan Farg'onalik shoir Maxmur g'azaliga bog'lash – taxmis yo'li bilan yaratgan . Muqimiy muhammasida Maxmur yo'lini davom ettirib , xalq hayotining tipik manzarasini , ustalik bilan chizib berdi . Hapalak qishlog'i juda ayanchli ahvolda tasvirlaydi .

XIX asr adabiyotiga oid asarlarida ham behad zulum natijasida o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan xalq to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi . Shularning bir Muqimiy muhammasidir :

Ko'chdi xalqi yo'pinib ko'hna uvoda to'nini ,
Charxdin o'tkarishib ohu fig'onu unini ,
Solmasun dushmani ham boshig'a kelgan kunini .
Kecha nogohon eshitib shuhrati tillo pulini ,
Hapalak qo'rqishidin ucti misoli kapalak .

“Hapalak qishlog'i to'g'risida “ muxammasida tasvirlangan bu manzara haqoniy va realistik harakterga ega bo'lib , xalq hayotining asl mohiyatini anglashga yordam beradi . Muxammasda xalq hayotining xarakterli , tipik lavhasi – manzarasi bor .

Muqimiy murabba'larining jozibador chiqishi va shuhrat qozonishining siri ham uning mazmunan va ruhan xalq poeziyasiga yaqinligidir . Muqimiy murabba'larni xaliq poeziyasiga yaqinlashtiradigan eng muhim xususiyati ular mazmunining aniqligi , uslubining soddaligi va samimiyligidir .

Adib murabba'lariga hos bo'lgan xususiyatlarni : chuqur mazmundorlik , ravonlik , sho'x , o'ynoqi vazn va samimiylilikni ko'rsatish uchun “Ey chehrasi tobonim” asarini eslash kifoya .

Muqimiyning murabba'lari yigirmadan ortiq , deyarli hammasi ishqiy mavzuda ohangdor , ravon . Vazniga ko'ra aruzdan barmoqqa yaqin turadi. Muqimiy o'z ijodiy faoliyatida xalq adabiyoti xazinasidan ko'p bahramad bo'ladi va uning xaliq og'zaki ijodi bahsi ancha diqqatga sazovar mavzulardan biri bo'lib , shoir ijodida , xususan uning lirikasida bu masalalariga oid harakterli misollar ko'p uchiraydi . Adib lirikasining ehg yaxshi namunalari qo'shiqa aylanib ketgan va keng xaliq o'rtasida kuyga solib ijro etiladi . Bundan tashqari shunday holler ham uchiraydiki xalq

qo'shiqlari ichida Muqimiy sher'lari uslubida to'qilgan sairlar ham bor .
Chunonchi:

Zulim etib mazlumlarni xor qilmoq shunchalar ,

Cho'ridek zo'rlab sotib , ozor qilmoq shunchalar ,

Bundan tashqari Muqimiy muzika madaniyatimiz taraqqiyotida ancha kuchli
tasir ko'rsatgan . Bir tamondan , Muqimiy she'rlari xalq kuylariga solib keng
ijro etilgan , bo'lsa ikkinchi tamondan , Muqimiy so'zlariga zamondosh
bastakorlar tamonidan ko'plab kuylar yaratilgan . Muqimiyning o'zi ham san'at
ahillari – xalq hofizlari , bastakorlari bilan do'stona aloqada bo'lgan ' uning
she'rlari juda erta XIX asrning 80 – yillaridayoq xalq o'rtasida keng tarqalgan
edi . Bu haqiqatni o'sha davrdagi rasmiy manbalar ham tasdiqlaydi “ T.v g “ning
sonlaridan birida Toshkentda o'tkazilgan katta bir yig'in to'g'risida habar
bosilar ekan ' unda xalq hofizlari tamonidan ijro etilgan ashulalar to'g'risida
to'xtalib , ashula tekstlari to'liq keltiriladi shu jumladan Muqimiyning

Navbahor ochildi gullar , sabza bo'ldi bog'lar .

Suhbat aylaylik , kelinglar , jo'ralar o'rtoqlar .

Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahhob ila,

O'ynashib,gohe tabiatni qilaylik chog'lar!...

Bayti bilan boshlangan shox , quvnoq ruhli “ Navbahor “ g'azali bilan ijro
etilgan kuy tilga olinadi . Muqimiyning “Navbahor” g'azali “Navbahor”- yangi
bahor degan ma'noni bildiradi.U uyg'onish faslidir. Albatta shuni aytish kerakki
Muqimiydan bizga boy ijodiy meros qolgan , shoir asosan poeziya janrida
ijod etgan bo'lsa – da , uning asarlari o'zining g'oyaviy badiiy xususiyatlari
jihatdan rang barangdir . Muqimiy lirik shoir bo'lishi bilan birga ,
adabiyotimizda hajviyotoni yangi bosqichga ko'targan va satira maktabini
yaratgan hajvigo'y ham edi . Muqimiyning bizgacha yetib kelgan merosining
umumiy hajmi taxminan hozircha 10 ming misradan iboratdir .

Xulosa qilib shuni aytish keraki , Muqimiy o'z ijodiy faoliyati bilan navator shoir sifatida maydonga chiqqan . Uning zamondoshlari - soirlar undan ko'p narsa o'rgandilar , uning tradisiyalarini davom ettirdilar . Zavqiy , Avaz O'tar , Dilshod , Anbar otin kabi shoirlar esa sabot va matonat bilan u boshlab bergan ijodiy – estetik prinsiplarni davom etirdilar . Muqimiy adabiyot tariximizning ma'lum bosqichini tashkil qiladi . Adib ijodi o'zining butun kuchli va zaif tamonlari bilan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi tarixiy davr yetishtirgan katta adabiy va ijtimoiy hodisadir . Har qanday ijtimoiy hodisa kabi , u ham qarama –qarshi xususiyatlarga ega . Chunki u ijodida xalq hayotini butun to'laligi , chuqurligi va murakkabligi bilan aks ettirgan zo'r talant egasi edi. Muqimiy ijodining muhim fazilatlaridan biri uning o'z uslubi va umumiy ruhi bilan xalqqa juda yaqin bo'lishi xalq ma'naviy hayotiga singib ketganligidadir . Muqimiy oddiy xalq ichidan chiqdi , xalq uchun yozdi , uning asarlari xalqqa manzur bo'ldi va ezozlandi. Muqimiy haqiqiy xalq shoiridir , uning g'azallarida umuminsoniy tuyg'ular ' azaliy mavzular bilan birgalikda o'z davrini , shu davrda yashayotgan odamlarning katta - kichik muomalalarini badiiy adabiyotning masalasiga aylantira bildi . Shu tariqa , adabiyot xalq va uning hayotiga yaqinlashdi .

Xullas , Muqimiy ijodi ko'p asrlik o'zbek adabiyotining tamomila yangi bosqichga kirganini , u oddiy kishilar turmushiga bevosita aralasha boshlaganini ko'rsatadi . Shoir xalq hayotini uning haqqoniy realistik lavhalarini chizib beradi , ularning hajmi va harakteri xar hil, ular turli vaqitda yozilgan . Shu tufayli g'oyaviy saviyasi bir hil emas . Muqimiy lirikasi yani , g'azal , murabba va muhammaslaridagi tabiat go'zalligi , insoniy tuyg'ularning rang baranligini zavq – shavq bilan ijtimoiy- tarixiy voqeylikkda yoritadi . Muhammad Aminxo'ja XIX asrning 70 – yillari oxiridan e'tiboran to'lig'icha badiiy ijodga beriladi va "Muqimiy" taxallusi bilan she'rlar yozib , dovruc qozonadi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “ O'zbek adabiyoti tarixi “ F .K. Karimov ,
Toshkent. 1987- yil .
- 2 . “ Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti ”
Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dalimov ,
Shuhrat Rizaev , Sunnat Ahmedov .
Toshkent 2004 - yil .
- 3 . Muqimiy “ Saylanma ”
Toshkent “ Ma'naviyat ” 2009 - yil .
- 4 . N . Karimov , B . Nazorov , U. Narmatov , Q. Yo'ldashev.
Adabiyot darslik . Toshkent 2004 - yil .